
Jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlar tanqidiy tahlil qilindi

Jinoyatchilik va uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish hamda huquqbuzarliklarni profilaktika qilish maqsadida "Payshanba - profilaktika kuni" deb e'lon qilingan. Shu munosabati bilan sektor rahbarlari tomonidan Farg'ona politexnika institutida yig'ilish o'tkazildi. Unda mahalla raislari, profilaktika inspektorlari, korxonalar va tashkilotlar, ta'lim muassasalari rahbarlari ishtirok etishdi.

Yig'ilish davomida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarni oldini olishda jamoatchilik nazorati muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Shaharda iyul oyining o'tgan davri mobaynida sodir etilgan jinoyatchilik tahlil qilindi. Targ'ibot va tashviqot tadbirlarining o'tkazilishi, profilaktika inspektorlarining faoliyatlari tanqidiy muhokama qilindi.

Mahalla xodimlari va profilaktika inspektorlariga targ'ibot tadbirlarini olib borish bo'yicha topshiriqlar berildi.

2022-07-22 14:55:45